

TAKRORIY EKIN SIFATIDA EKILGAN SOYA NAVLARINING MORFOLOGIK KO‘RSATGICHLARIGA MIKROBIOLOGIK PREPARATLARNING TA‘SIRI

Amonova D.B., Matniyazova H.X., Xalikova M.A.
O‘zRFA Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti
Buxoro Davlat universiteti
Chirchiq Davlat pedagogika universiteti

Аннотация: В статье изучено влияние микробиологических препаратов ризоторфина и нитрагина на морфологические характеристики отечественных сортов: Хатира, Эхтиёж, зарубежных: сорта Арлетта, Эврика-357, Нена, высаженных в качестве повторной культуры, в фазу бутонизации.

В результате исследования установлено, что микробиологические препараты положительно влияют на длину корня, длину основного стебля и количество листьев сортов сои.

Annotation: In this article, the effect of microbiological fertilizers rhizorthorpin and nitragin on the morphological characteristics of domestic: Khatira, Ekhtiyoj varieties, foreign: Arletta, Evrika-357, Nena varieties, planted as a repeated crop, during the bud stage. As a result of the study, it was found that microbiological preparations had a positive effect on the root length, main stem length and number of leaves of soybean varieties.

Hozirgi kunda aholi soning oshishi bilan oziq-ovqat va sifatli oqsilga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Sabzavot oqsili muammosini hal qilishda dukkakli ekinlarning o‘rni beqiyosdir [1]. Soya urug‘i tarkibidagi oqsil miqdoriga ko‘ra dukkakli ekinlar orasida yetakchi o‘rinda turadi. Undan boshqa manbaallarga qaraganda arzonroq va oson oqsil olish imkoni mavjud. Soya doni tarkibidagi oqsilda hayvon oqsilida uchraydigan barcha almashinib bo‘lmaydigan aminokislotalar mavjud.

Dukkakli-don ekinlar takroriy ekin sifatida ekilganda o‘svuv davri davomida o‘zini azot bilan ta‘minlabgina qolmay, ildizida 90-100 kg gacha sof azot qoldirishi bilan birga tuproqdagi mikroorganizmlarning yashashi uchun qulay sharoit ham yaratadi [2].

Material va metodlar:

soyaning mahalliy: Xotira, Ehtiyoj navlari, xorijiy: Arletta, Evrika-357, Nena navlaridan va “Rizotorfin”, “Nitragin” mикrобиологик preparatlaridan foydalaniladi.

Urug‘larni ekishdan oldin “Rizotorfin” preparatining 1:1,5 nisbatdagi eritmasida urug‘lar 2 soat davomida, “Nitragin” mикrобиологик preparatining 1:10 nisbatdagi eritmasida esa, urug‘lar 30-40 minut davomida inokulyatsiya qilindi va 26 iyun sanasida takroriy ekin sifatida ekildi.

Olingan Natijalar Tahlili:

mikrobiologik preparat tarkibida atmosfera azotini va boshqa ozuqaviy ahamiyatga ega elementlarni oson o‘zlashtirish xususiyatiga ega bo‘lgan turli mikroorganizmlarning tirik hujayralarini o‘z ichiga oluvchi ekologik toza mahsulot hisoblanadi [3].

Tadqiqotlarda Rhizobium inokulyatsiyasi o‘simliklarning metabolizmini yaxshilashi va soya o‘simligi o‘sishi va hosildorligini oshirishi aniqlangan [4].

G'unchalash davrida mikrobiologik preparatlarning soya navlaridagi morfologik ko'rsatkichlariga ta'siri.

Namunalar		O'simlik ildiz uzunligi sm.da	O'simlik poya uzunligi sm. da	O'simlikning umumiy uzunligi sm. da (ildiz+poya)	O'simlik barg soni (dona)
Nazorat	Arletta	15,6	16,0	31,6	10,0
	Evrika	16,3	14,0	30,3	11,3
	Nena	16,0	15,6	31,6	15,2
	Ehtiyoj	18,0	15,0	33,0	13,0
	Xotira	16,0	16,3	32,3	11,0
Rizotorfin	Arletta	20,3	19,6	40,0	18,0
	Evrika	22,0	20,3	42,3	17,0
	Nena	25,3	19,6	44,9	18,5
	Ehtiyoj	26,7	21,6	47,6	17,9
	Xotira	25,2	23,3	48,3	17,0
Nitragin	Arletta	20,3	19,3	39,6	17,1
	Evrika	19,6	18,6	38,4	15,5
	Nena	21,3	20,6	41,9	18,0
	Ehtiyoj	26,0	20,7	46,7	18,1
	Xotira	21,3	20,7	41,9	16,3

Tadqiqotlarimizda Nazorat va tajriba fonlarida ekilgan soya navlarining morfologik ko'rsatkichlari o'rganilganda, nazoratga nisbatan tajriba ya'ni Nitragin va Rizotorfin preparatlari ta'sirida yuqori natijaga ega bo'ldilar. G'unchalash davrida Rizotorfin preparati ta'sirida soya navlaridagi ildiz uzunligi navga bog'liq holda 20,0-26,7 sm gacha bo'ldi. Rizotorfin preparati ta'sirida ildiz uzunligi bo'yicha Nena, Xotira va Ehtiyoj navlari yuqori ko'rsatkichlarni qayd qilgan bo'lsa (mos ravishda 25,3 sm, 25,2 sm va 26,7 sm) past ko'rsatkich Arletta navida (20,3 sm) aniqlandi. Ushbu preparat ta'sirida asosiy poya uzunligi belgisi bo'yicha yuqori ko'rsatkich Ehtiyoj va Xotira navlarida (mos ravishda 21,6 sm va 23,3 sm) aniqlandi, past ko'rsatkich esa Arletta va Nena navlarida (mos ravishda 19,6 sm va 19,6 sm) kuzatildi.

Rizotorfin preparati ta'sirida o'simliklarning umumiy uzunligi (ildiz va asosiy poya birgalikda) belgisi bo'yicha yuqori ko'rsatkich Ehtiyoj va Xotira navlarida (mos ravishda 47,6 sm va 48,3 sm) kuzatilgan bo'lsa, past ko'rsatkich Arletta navida (40,0 sm) aniqlandi. Asosiy poyadagi barg soni belgisi bo'yicha yuqori ko'rsatkich Arletta va Nena navlarida (mos ravishda 18,0 dona va 18,5 dona) aniqlangan bo'lsa, eng past ko'rsatkich Evrika va Xotira navlarida (mos ravishda 17,0 dona) qayd qilindi.

Nitragin preparati ta'sirida morfologik belgilarni o'rganganimizda ildiz uzunligi belgisi bo'yicha yuqori ko'rsatkich Ehtiyoj navida (26,0 sm), eng past ko'rsatkich esa Evrika navida (19,6 sm) aniqlandi. Ushbu preparat ta'sirida asosiy poya balandligi bo'yicha yuqori ko'rsatkich Ehtiyoj va Xotira navlarida (mos ravishda 20,7 sm) aniqlangan bo'lsa, eng past ko'rsatkich esa Evrika navida (18,6 sm) aniqlandi. Nitragin preparati ta'sirida o'simliklarning umumiy uzunligi (ildiz va asosiy poya birgalikda) belgisi bo'yicha yuqori ko'rsatkich Ehtiyoj navida (46,7 sm) kuzatilgan bo'lsa, past ko'rsatkich Evrika navida (38,4 sm) aniqlandi. Asosiy poyadagi barg soni belgisi bo'yicha yuqori ko'rsatkich Ehtiyoj va Nena navlarida (mos ravishda 18,1 dona va 18,0 dona) aniqlangan bo'lsa, eng past ko'rsatkich Evrika navida (mos ravishda 15,5 dona) qayd qilindi.

Tadqiqot natijasida qo'llanilgan mikrobiologik preparatlar barcha soya navlarida ildiz uzunligi, asosiy poya uzunligi va barg soniga ijobiy ta'sir ko'rsatganligi aniqlandi.

Adabiyotlar

1. H.N. Atabayeva., I.B. Xudayqulov. O'simlikshunoslik. Toshkent. 2018.
2. F.H.Jumayev, Z.Atayeva, A.Narzullayev, I.Fozilov, S.A.Hojiyev. Buxoro Viloyati Sharoitida Dukkakli Ekinlarni Tuproq Unumdorligini Oshirishdagi Ahamiyati Va O'rni. 2021.
3. Effect of Biofertilizers in germination and biochemical content of Oryza Sativa L. Variety Ambai-16. P. Irish Rameswari, 2 Irene Wilsy, J and 3M. Reginald Appavoo. 2018.
4. Effects of Different Biofertilizer on Soybean (Glycine max) Production. Md. Nazmul Islam, Shaila Sharmin, and Mohammed Ataur Rahman. American Journal of Pure and Applied Biosciences. 2021 Journal homepage: www.universepg.com/journal/ajpab.